

MILLATLARARO TOTUVLIK VA HAMJIHATLIK JAMIYAT TARAQQIYOTINING MUHIM MEZONI

Jahonda turli millat vakillarining bir mamlakatda tinch-totuv yashashlari, umuminsoniy bag'rikenglik tamoyillarini rivojlantirishga intilishlari yangi asrga xos xususiyat hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyotida turli millat va elatlar huquqlari, manfaatlari ta'minlanishi, ularning tili, madaniyati va tarixiga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'linishi demokratik islohotlar jarayonida muhim jihatlardandir.

Tarixning turli tahlikali davrlarida yurtimiz boshiga musibatli kunlar tushdi. Ma'lumki, XX asr 30-yillarida mustabid tuzumning qatag'on siyosati va Ikkinchi jahon urushi davrida o'z yurtidan majburan ko'chirilgan, badarg'a qilingan elat va millat vakillariga xalqimiz bag'rini ochdi. Mehr ko'rsatdi. Eng og'ir damda ularga yordam qo'lini cho'zib, bir burda nonini baham ko'rdi. **Koreyslar, nemislar, turklar, polyaklar, greklar, qrim-tatarlar** bu bag'ri keng zaminda o'zining ikkinchi vatanini topdi. Ular o'zlarining yangi vatanlarida mahalliy aholi bilan emin-erkin turmush kechirdilar. O'zbekiston zaminida istiqomat qilayotgan millat va elatlar soni XX asr davomida muntazam o'sib bordi. Agar 1897-yilda hozirgi O'zbekiston hududlarida 70 ga yaqin millat va elatlar istiqomat qilgan bo'lsa, 1926-yilga kelib 91 ta, 1959-yilda 113 ta hamda 1989-yilga kelib 136 taga yetdi¹.

Bugungi kunda O'zbekistonda 130 dan ziyod millat va elat vakillari istiqomat qilmoqda. Shu sababli so'nggi yillarda jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash, do'stlik muhitini va ko'p millatli katta yagona oila tuyg'usini mustahkamlash, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalarni kengaytirishga yo'naltirilgan keng miqyosdagi ishlar amalga oshirildi.

Zero, "Mamlakatimizda bag'rikenglik madaniyatini yuksaltirish, millatlar va konfessiyalararo o'zaro bir-birini tushunish va hamjihatlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanadi ..."².

Shu ma'noda ta'kidlash kerakki, mamlakatimizdagi millatlararo hamjihatlik uzoq yillar mobaynida davlat tomonidan olib borilayotgan tizimli siyosatning hosilasidir. Bu borada amalga oshirilgan huquqiy va ijtimoiy-siyosiy islohotlar bilan bog'liq quyidagi aniq dalillarni keltirib o'tish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Shubhasiz, mamlakatimizda bu borada amalga oshirilgan islohot va o'zgarishlar negizida konstitutsion normalar mavjudligi alohida ta'kidga loyiq.

Mamlakatimizda yashab kelayotgan millat va elatlar vakillari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari taqdim etgan teng huquq va imkoniyatlardan foydalanib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida va ijtimoiy sohada,

¹ Xudoyberganova F.T. Millatlararo totuvlik - taraqqiyotning muhim omili. "O'zbekistonda millatlararo totuvlik, milliy, diniy va siyosiy bag'rikenglikni yanada rivojlantirishning ijtimoiy, falsafiy masalalari" Respublika ilmiy – amaliy konferensiyasi ilmiy maqolalar to'plami 2020. –B. 116.

² Mirziyoyev Sh.M. "Islom hamjihatligi: O'zbekiston va Ozarbayjon misolida" mavzuidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga. – Toshkent shahri. 2017-yil. 18-oktyabr // Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2 jild. – T.: O'zbekiston", 2018. – B. 455.

ilm-fan va madaniyat sohalarida samarali mehnat qilib, Vatanimizning gullab-yashnashiga va uning mustaqilligini mustahkamlashga, respublikaning xalqaro maydondagi obro‘-e‘tibori va imijini oshirishga munosib hissa qo‘shib kelmoqdalar.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tamoyillari turmushga faol tatbiq etilmoqda. Bosh qomusimizda O‘zbekiston xalqini millatidan qat‘i nazar O‘zbekiston fuqarolari tashkil etishi muhrlab qo‘yilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi o‘zining hududida yashovchi millat va elatlarning tili, urf-odati va an‘analariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishini, ularni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini e‘lon qilgan va kafolatlagan.

Chindan ham, O‘zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasi Muqaddimasida** O‘zbekiston xalqi ushbu Konstitutsiyani “fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta‘minlash maqsadida” qabul qilgani alohida ta‘kidlangan. Konstitutsiyamizning 4-moddasida O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tili ekani mustahkamlangani barobarida, O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odat va an‘analari hurmat qilinishini ta‘minlashi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratishi qayd etilgan.

Bosh Qomusimizning **8-moddasida** “O‘zbekiston xalqini millatidan qat‘i nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi” degan norma belgilab qo‘yilgan. Ana shu konstitutsiyaviy talabdan kelib chiqib, o‘z taqdirini O‘zbekiston bilan bog‘lagan, mamlakatimiz farovonligi yo‘lida halol va vijdonan mehnat qilayotgan, o‘zlariga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga aylanib qolgan fuqarolarning hayotiy muhim masalalarini hal etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Konstitutsiyamizning **19-moddasiga** ko‘ra, “O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat‘i nazar, qonun oldida tengdirlar”, deya belgilangan. Bularning barchasi, o‘z navbatida, aholi, ayniqsa, yoshlar ongida insonparvarlik qadriyatlarini, turli millat vakillari o‘rtasida o‘zaro hamjihatlikni yanada mustahkamlash, bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishni taqozo etdi.

Davlatimiz rahbarining 2017-yil 19-maydagi “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2019-yil 15-noyabrdagi “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari qabul qilingani bu borada ayni muddao bo‘ldi.

O‘zbekiston Prezidentining 2017-yil 19-maydagi Farmoni jamiyatda barqarorlik, tinchlik va totuvlikni ta‘minlash, fuqarolar ongida katta, ko‘p millatli yagona oilaga mansublik tuyg‘usini mustahkamlash, milliy madaniy markazlar va do‘stlik jamiyatlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma‘rifiy aloqalarni kengaytirishga qaratilgan ta‘sirchan tashkiliy-institutsional chora-tadbirlarni o‘zida qamragan.

Bu haqda fikr yuritganda, avvalambor, shu paytga qadar faoliyat yuritib kelgan **ikkita yirik tuzilma** – Respublika baynalmilal madaniyat markazi va O‘zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik va madaniy-ma‘rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi negizida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi tashkil etilganini ta’kidlash lozim.

Buning natijasida Respublika baynalmilal madaniyat markazi, milliy madaniy markazlar, O‘zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik va madaniy-ma‘rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi, shuningdek, do‘stlik jamiyatlari yagona Qo‘mita negizida birlashdi.

Bugungi kunda Qo‘mita mamlakatdagi **156 ta milliy** madaniy markaz, **38 ta do‘stlik** jamiyati va xorijdagi **98 ta vatandoshlar** jamiyati bilan hamkorlik qilmoqda. Chet eldagi hamkor tashkilotlar bilan ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirish bo‘yicha **5 ta anglashuv memorandum** va kommyunike imzolandi.

Endilikda ushbu Qo‘mita jamiyatda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni ta‘minlash, tinchliksevar siyosatni, mamlakat hayotining barcha sohalarida erishilgan yutuq va muvaffaqiyatlarni keng targ‘ib qilish, xalqaro hamjamiyat, shu jumladan, chet eldagi hamyurtlarimiz diasporasi bilan do‘stlikni mustahkamlashga doir davlat siyosatini izchil amalga oshirmoqda.

Prezidentimiz 2017-yil 19-sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida jahon hamjamiyati oldida turgan dolzarb masalalarga to‘xtalib, **“Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik”** deb nomlangan maxsus rezolyutsiyani qabul qilish bo‘yicha taklif bildirgandi. 2018-yil 12-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi 73-sessiyasi 51-yig‘ilishida “Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyutsiyasi **193 ta a‘zo mamlakat** tomonidan yakdillik bilan qabul qilindi.

“Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyutsiyasining aynan O‘zbekiston tashabbusi bilan ishlab chiqilishida o‘ziga **xos ramziy ma‘no** bor. Bugun millatlararo totuvlik va konfessiyalararo bag‘rikenglikni ta‘minlash borasidagi O‘zbekiston namunasi jahon hamjamiyati tomonidan e‘tirof etilmoqda. Binobarin, ona zaminimizda dinlararo bag‘rikenglik va millatlararo hamjihatlik chuqur tarixiy ildizlarga ega.

Millatlararo totuvlikni ta‘minlash O‘zbekistonning zamonaviy davlat sifatida rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Xususan, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida millatlararo munosabatlar sohasida belgilangan vazifalar doirasida 40 dan ortiq **me‘yoriy-huquqiy hujjatlar – 2 ta Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 9 ta farmoni va 8 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 20 ta qarori, Oliy Majlisning 3 ta qarori** qabul qilindi.

Yana bir muhim jihat: Prezidentimiz 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga taqdim etgan Murojaatnomasida jamiyatda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik muhitini mustahkamlashga qaratilgan ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish zarurligini qayd etib, BMT Bosh Assambleyasining rezolyutsiyasi bilan har

yili 30-iyul – Xalqaro do‘stlik kuni sifatida keng nishonlanishi, shu bois mazkur sanani O‘zbekistonda **“Xalqlar do‘stligi kuni”** deb belgilashni taklif etgani yurtimizda istiqomat qiluvchi ko‘p millatli fuqarolarimizni benihoya quvontirdi.

Endilikda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 10-fevraldagi Qonuniga asosan, mamlakatimizda 30-iyul – “Xalqlar do‘stligi kuni” etib belgilangan.

So‘nggi yillarda ushbu sanaga bag‘ishlab “Do‘stlik” haftaligi va “Do‘stlik” xalqaro forum-festivali kabi yirik xalqaro tadbirlar tashkil etilmoqda. Hukumatning tegishli qarori bilan “Xalqlar do‘stligi” ko‘krak nishoni ta‘sis etildi. Ushbu ko‘krak nishoni bilan yurtimizda yashayotgan barcha millat va elat vakillari o‘rtasida millatlararo do‘stlik va totuvlik muhitining mustahkamlanishiga munosib hissa qo‘shgan, milliy madaniy markazlar va do‘stlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish borasida fidokorona mehnat qilgan, shuningdek, xorijiy mamlakatlar xalqlari bilan do‘stlik va har taraflama hamkorlikni rivojlantirishda samarali natijalarga erishgan mahalliy va xorijiy davlat organlari xodimlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, tadbirkorlik subyektlari, ijtimoiy soha va ommaviy axborot vositalari vakillari hamda xorijdagi vatandoshlar taqdirlanadi.

Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi bo‘lgan **“2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”**da ham aynan jamiyatda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilgan. Xususan, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi **74-maqсад** jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash borasidagi tegishli vazifalarni o‘z ichiga olgan.

Mamlakatimizda milliy o‘zlikni saqlab qolish, etnik qadriyatlarni rivojlantirish bilan bog‘liq jarayonlarga, yaqin o‘tmishdagidan farqli ravishda millatchilikning o‘sishi deb emas, balki tabiiy-tarixiy jarayon sifatida qaralmoqda va tegishli institutsional asoslar yaratilmoqda. Xususan, etnomadaniy ehtiyojlarini to‘laqonli qondirish, milliy urf-odatlar va an‘analar rivojiga har tomonlama sharoit yaratish maqsadida respublikadagi turli millatlarga mansub milliy-madaniy markazlar faoliyatiga keng yo‘l ochib berilganini qayd etish lozim.

Mamlakatimizdagi dastlabki milliy-madaniy markazlar koreyslar, **qozoqlar, yahudiylar, armanlar tomonidan 1989-yilda** tuzilgan. Mustaqillik yillarida ularning samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun keng imkoniyat yaratildi. Agar 1992-yil 10 ta milliy-madaniy markaz ish olib borgan bo‘lsa, 1995-yilda ularning soni 72 taga, 2003-yilga kelib esa 135 taga yetgan. Bugungi kunda millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 156 ta milliy madaniy markaz, 38 ta do‘stlik jamiyati va xorijdagi vatandoshlarning 98 ta jamiyati bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Ular respublika madaniy markazlari, viloyat, shahar va tuman madaniy markazlaridan iborat. 2023-yilda yangi **3 ta milliy madaniy** markaz tashkil etildi.

Mamlakatimizda yashovchi turli millat vakillarining urf-odatlarini saqlab qolishi, milliy hamda madaniy bayramlarini nishonlashlariga **ko‘maklashish maqsadida 156 ta milliy-madaniy** markazlar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Mustaqillik yillarida milliy madaniy markazlarning **500 dan ortiq faoli davlat mukofotlariga sazovor bo'ldi**, orden va medallar bilan taqdirlandi, jumladan, **14 nafariga "O'zbekiston Qahramoni"** yuksak unvoni berildi.

Yurtimizda mavjud 10 mingdan ziyod maktabning 2 mingga yaqinida qardosh tillarda ta'lim-tarbiya olib borilishi, o'zbek tili bilan qo'shib hisoblaganda **7 til (o'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, tojik, turkman tillari)**da dars o'tilishi qonuniy ta'minlangani va mana shu yetti tilda davlat tomonidan darsliklar, o'quv qo'llanmalari ham muntazam ravishda chop etib borilishiga alohida e'tibor qaratilgan.

Xususan, oliy ta'lim tizimida o'qish milliy tillarda olib boriladigan maxsus fakultet va bo'limlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning 30 foizdan ortig'i mustaqillik yillarida tashkil etilganini alohida qayd etish joiz. **Teleradioko'rsatuv va eshittirishlar 12 tilda efirga uzatilmoqda, gazeta va jurnallar 14 dan ortiq tilda chop etilmoqda.**

Millatlararo munosabatlar sohasida yangi davr mutaxassislarini tayyorlash maqsadida 2019-2020 o'quv yilidan boshlab, oliy ta'lim muassasalarida antropologiya va etnologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash tizimi yo'lga qo'yildi. Jumladan, O'zbekiston milliy universitetida **"Amaliy etnologiya"** laboratoriyasi, keyinchalik universitetning tarix fakultetida **"Antropologiya va etnologiya"** kafedrasini tashkil etildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakatimizdagi millatlararo munosabatlar masalalarini tahlil qilish, etnik nizolarning hamda ularning salbiy oqibatlarining oldini olishga erishish bilan bog'liq vazifalarni bajarishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish borasida qator tadbirlar ko'zda tutilgan.

Yurtboshimiz tashabbuslari asosida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik islohotlar sur'ati va samarasi, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy jihatdan erkinlashtirish va jamiyat hayotining boshqa jabhalarida erishilgan salmoqli muvaffaqiyatlar tahlili mamlakatimiz xalqining O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha olijanob maqsadlar va g'oyat muhim vazifalarga erishishdan iborat yagona maqsad atrofida birlashganini ta'kidlash uchun barcha asoslarni beradi.

Oxirgi yillarda O'zbekistonda millatlararo munosabatlarda qator ijobiy ishlar amalga oshirilgani kuzatilmoqda. Buni quyidagi fikrlar ham tasdiqlaydi.

Birinchidan, millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligi yanada oshgan.

Ikkinchidan, jamiyatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan mojaroli vaziyatlar va ixtiloflarning barvaqt oldini olish va ularni profilaktika qilish faoliyatini tashkil etish asosi sifatida joylarda millatlararo munosabatlar holatini monitoring qilish tizimi va mexanizmlari yo'lga qo'yilgan.

Uchinchidan, millatlararo muomala madaniyatini tarbiyalash, O'zbekiston xalqining tarixi va an'alarini o'rganish bo'yicha ta'lim, axborot va madaniy-ma'rifiy chora-tadbirlar kompleksi ishlab chiqilgan.

To'rtinchidan, millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida davlat organlari mutaxassislarini, shuningdek, boshqa tashkilotlar xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish borasida samarali mexanizmlar yaratilgan.

E'tiborlisi, yer yuzidagi ikki yuz ellikdan ortiq davlatda 7 milliard 700 million kishini tashkil etadigan, **7000 til va lahjada** gaplashadigan aholi istiqomat qilmoqda. Jahonning etnik xaritasiga e'tibor bersak, bugungi kunda dunyoda miqdoran bir necha yuztadan tortib bir necha yuz millionni tashkil etadigan **2000 ga yaqin har xil millat va elatlar** yashayotganining guvohi bo'lamiz.

Shunday ekan, millatlararo bag'rikenglik, ular orasida o'zaro hurmat va do'stona aloqalarni o'rnatish borasida bir qator xorijiy davlatlar katta muvafaqqiyatga erishganligini ko'rish mumkin.

Xususan, **Turkiyaning** Chet eldagi turklar va qardosh jamiyatlar boshqarmasi³ (Yurtdişi Türkler ve Akraba Topluluklar Başkanlığı - YTB) Turkiya madaniyat va turizm vazirligi tarkibida tashkil etilgan. Tashkilot 2010-yil 6-aprelda tashkil topgan bo'lib⁴, u xorijdagi vatandoshlar va ularning guruhlar bilan mamlakat elchixonasi va konsulligi, Turkiyaning "Yunus Emro" nomidagi milliy madaniy markazlari orqali aloqa o'rnatadi (Alohida Yunus Emro Fondi ham tashkil etilgan).

Boshqarmaning asosiy maqsadi xorijda yashayotgan 6,5 million turk fuqarosi, shuningdek, qardosh xalqlar va jamoalar bilan aloqalarni mustahkamlashdan iborat.

Tashkilot madaniy markazlar, qardoshlik va birodarlik jamiyatlari bilan hamkorlik qiladi, tashkilot nomidan xalqaro tashkilotlar bilan bitimlar imzolash, loyihalarni amalga oshirish, xalqaro miqyosda murojaatnoma va so'rovlar kiritish vakolatiga ega hisoblanadi.

Mamlakatdagi mavjud milliy madaniy markazlar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatadi va ular faoliyatini qo'llab-quvvatlashga amaliy ko'mak beradi.

Hindistonda etnik ozchiliklar masalasi bilan "National Commission for Minorities" (NCM) - Hindiston Ozchiliklar ishlari vazirligi shug'ullanadi. Mazkur tashkilot 2006-yil 29-yanvarda musulmon, nasroniy, buddist, sikh, parsi va jayn kabi ozchilik jamoalari bilan bog'liq masalalarga ko'proq yo'naltirilgan yondashuvni ta'minlash uchun tashkil qilingan⁵.

Ozchilik ishlari vazirligi har yili Hindistonning ozchilik jamoalari talabalariga "Moma" stipendiyasini taqdim etadi. Bu stipendiya vazirlikning maxsus stipendiyasi

³ <https://www.ytb.gov.tr/kurumsal/bilgi-guvenligi-politikasi>

⁴ [Manba](#)

⁵ <https://ncm.nic.in/homepage/homepage.php>

sxemasi bo'lib, moliyaviy jihatdan kuchli bo'lmagan va Hindistonda oliy ta'lim olishni xohlovchi ozchilik jamoalari talabalarini qo'llab-quvvatlash maqsad qilingan⁶.

Germaniyada Federal hukumatning migratsiya, qochqinlar va integratsiya bo'yicha komissari va irqchilikka qarshi federal hukumat komissari integratsiya siyosatini yanada rivojlantirish va chet elliklar va nemislar o'rtasida birgalikda yashashni rag'batlantirishda Federal hukumatni qo'llab-quvvatlaydi.

Tashkilot migrantlar va qochqinlarga boshpana berish, ularning huquqlarini himoya qilish, mamlakatdagi chet elliklarning ro'yxatini yuritish, qochqinlar uchun gumanitar yordamlarni qabul qilish va tarqatish, migrant va qochqinlarni nemis tiliga o'qitish (integratsiya, migratsiya kurslari), boshpana, migratsiya va integratsiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar o'tkazish bilan shug'ullanadi⁷.

Qozog'iston Respublikasi Madaniyat va axborot vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlarni rivojlantirish qo'mitasi davlatning millatlararo siyosati sohasida rahbarlik qiladi. Qo'mita millatlararo totuvlikni saqlash va mustahkamlash bo'yicha davlat siyosatini amalga oshiradi.

Shuningdek, millatlararo munosabatlar bo'yicha doimiy tahliliy prognozlash ishlarini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Jumladan, millatlararo ziddiyatning oldini olish maqsadida etnomediatorlarni tayyorlash bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan. Jumladan, 2023-yilda barcha hududlardan 1380 nafar talaba (davlat xizmatchilari, ta'lim muassasalari xodimlari va boshqalar) joylarda aholi bilan ishlash bo'yicha o'qitilgan. Millatlararo munosabatlar sohasidagi eng dolzarb mavzular bo'yicha 8 ta uslubiy qo'llanma ishlab chiqilib, hududlarga tatbiq etilgan.

Qirg'iziston Respublikasi hukumati huzuridagi Mahalliy o'zini o'zi boshqarish va millatlararo munosabatlar davlat agentligi mahalliy o'zini o'zi boshqarish va millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat ijro etuvchi organi hisoblanadi⁸. Davlat ichida etnik tashabbuslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, Qirg'izistonda "etnik hamjamiyat kunlari"ni o'tkazish, etnik teatrlar, folklor ansambllari spektakllarini, she'riyat kechalarini tashkil etish, turli etnik guruhlar vakillari uchun qo'shma biznes loyihalarini tashkil etishga ko'maklashadi. Etnik xilma-xillikni boshqarish bo'yicha kadrlar malakasini oshirib keladi. Boshqa tashkilotlar bilan har yili eng yaxshi milliy taomlar, eng yaxshi milliy o'yinlar va boshqalarga bag'ishlangan "Diaspora kuni" deb nomlangan etnik

⁶ https://en.wikipedia.org/wiki/Ministry_of_Minority_Affairs#:~:text=The%20Ministry%20of%20Minority%20Affairs,programmes%20for%20the%20minority%20religious

⁷ <https://www.service.bund.de/Content/DE/DEBehoerden/B/Beauftragte-r/Beauftragte-der-Bundesregierung-fuer-Migration-Fluechtlinge-und-Integration/Beauftragte-der-Bundesregierung-fuer-Migration-Fluechtlinge-und-Integration.html?nn=4641496>

⁸ <https://cbd.minjust.gov.kg/46-2869/edition/822415/kg>

jamoalarning tadbirlarini o'tkazadi. Etnik guruhlarini bir-biriga yaqinlashtirishga qaratilgan tanlovlar tashkil etadi⁹.

Rossiya Federatsiyasida Prezident huzuridagi Millatlararo munosabatlar bo'yicha Kengash – maslahat va konsultativ organ, Millatlararo ishlar bo'yicha Federal agentligi – maqomi bo'yicha Federal ijro etuvchi organ faoliyat yuritadi. Kengashda davlat milliy siyosatining konseptual asoslari, maqsad va vazifalarini ko'rib chiqish va amalga oshirish amaliyotini muhokama qilish, Prezidentga davlat milliy siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash bo'yicha takliflar tayyorlash, millatlararo munosabatlar masalalari bo'yicha davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari, ilmiy va ekspert tashkilotlarining o'zaro hamkorligini ta'minlash vazifalari yuklatilgan. Bundan tashqari, 2020-yildan **“Rossiya xalqlari uyi”** tashkil etilib, tashkilot milliy madaniyatlarni saqlash va rivojlantirish, ularning tillarini tiklash va rivojlantirish, bunda madaniy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish orqali etnik jamoalar milliy-madaniy huquqlarini amalga oshirishga qaratilgan.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini mustahkamlash borasida yetarli huquqiy, tashkiliy va institutsional asoslar yaratilgan. Hukumat tomonidan turli millatlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Buning natijasida, O'zbekiston zaminida istiqomat qilayotgan millat va elatlar o'zlarini **tarixiy vatanlarida** yashayotganday his qilishayotgani, o'z ona tillarida muloqotga kirishishlari va ta'lim olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilgani e'tirofga molik.

Shuningdek, mamlakat hududida yashab kelayotgan turli millat vakillari uchun axborotni o'z ona tilida olish imkoniyati taqdim etilgani, bu borada tele va radio eshittirishlar, gazeta va jurnallar faoliyati yo'lga qo'yilgani respublikadagi bag'rikenglik tamoyillarining yorqin namunasidir.

Eng muhimi, ko'p millatli fuqarolar o'rtasida toqatsizlik kayfiyati mavjud emasligi, munosabatlarda o'zaro hurmat va do'stlik ustuvorligi ushbu yo'nalishdagi davlat siyosatining natijadorligidan dalolat.

Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi
Samarqand viloyat hududiy bo'linmasi rahbari
E.Ulug'murodov

⁹ <https://cbd.minjust.gov.kg/210041/edition/705072/kg>